

O`zbekiston Respublikasi Xalq Ta`lim Vazirligi  
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Institutu

«Kimyo va ekologiya» kafedrası

Tabiiy fanlar fakul`tetu

5110300 - «Kimyo o`qitish metodikasi» bakalavriat ta`lim  
yunalishining 4-kurs talabasi Kamalova Klamira Maratovnaning

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: «Maktabda ishkoriy metallar mavzusini o`qitishda  
innovatsion texnologiyalardan foydalanish»**

Ilmiy maslahatchi k.f.n., dotsent:

D.Toreniyazova

Ilmiy rahbar:

Z. Menlimuratova

Kafedra mudiri k.f.n.:

B.Jumabaev

Bitiruv malakaviy ishi Kimyo va ekologiya kafedrasining \_\_\_\_ 2015y majlisida  
muhokama qilinib №\_\_\_\_sonli bayonnoma bilan himoyaga ruxsat etildi.

**Nukus- 2015**

## MUNDARIJA

	Kirish.....	3
1	Adabiyotlarga taxlil etish .....	8
2	Material metodika.....	10
3	Asosiy qism.....	11
3.1	Ta`lim tizimida innovatsion texnologiyalar.....	11
3.2	O`quv mashg`ulotida ta`lim texnologiyasi bo`yicha o`qitish rejasining tuzilishi va mazmunining tarkibi.....	16
3.3	Ìshqoriy metallar mavzusini o`qitish texnologiyasining modeli va ta`lim texnologiyasi .....	20
3.4	Ìshqoriy metallar mavzusi buyicha o`quv-uslubiy materiallar .....	24
3.5	O`quv jarayonini tashkillashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	28
	Xulosalar .....	44
	.....	
	Hayot faoliyati havfsizligi .....	45
	Adabiyotlar.....	51

## Kirish

Prezidentimiz I.A.Karimov O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan «Inson manfaati, h`uquq va erkinliklarini taminlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo`lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir» tantanali marosimdagi maruzasida «O`zbekistonning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishidek buyuk maqsadga qanchalik yaqinlashtirayotganini anglash va baholash biz uchun, ayniqsa muhimdir. Ana shunday yuksak maqsadlarga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri bu – hech shubhasiz, mamlakatimiz ah`olisining ongu tafakkuri va dunyoqarashida yuz beraetgan o`zgarishlar, uning hayotga, mehnatga bo`lgan munosabati, tobora o`sib borayotgan siyosiy va huquqiy madaniyati, desam aslo mubolag'a bo`lmaydi» deganidek bugungi kunga kelib jahon hamjamiyati er va suv resurslarini asrash ulardan oqilona foydalanish, dolzarb muammolarni dune miqyosida hal etishni kun tartibiga quymoqda. [1]

Bugungi kundf bizning amalga oshirayotgan barcha ishlarimiz farzandlarimizning baxt-saodati, ularning yorqin kelajagi uchun amalga oshirilmoqta. Lekin, baxt-saodat faqat boylik, mal-mulk bilan belgilanmaydi. Odapli, bilimli va aqilli, mehnat sevar, iymon-insofli farzant faqat ota-onaning emas, butun jamiyatning eng katta boyligi bo`lib topiladi. . [2]

Barchamizga ayon, inson yuragiga yul, eng avvalo, ta`lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachon bo`lmasin bu haqqida so`z bo`lsa, babalarimiz qoldirgan biybaho meyrosni eslash bilan birga, ota-onalarimizning qatari biz uchun eng yaqin bo`lgan yana bir ulug` inson-oqituichi va ustozlarning yaqshi niyyat mihnatlarini hurmat bilan tilga olamiz. Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo`lmasligi, farzandlarimizning bizdan da ko`ra kuchli, bilimli, dona va albatta baxtli bo`lib yashashi uchun bar kuch va imkoniyatlarimizni yunaltirayotgan ekanmiz, bu boyicha ruxiy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, tenggi yuq ahamiyatga ega bo`ladi. Agar biz bu masalada sergaklik va sezgirligimizni va javobgarligimizni yug`oltsak, bu katta ahamiyatli ishni o`z holiga, o`zi bo`ladilikka tashlap qo`yadigan bo`lsak, muhaddas qadiriyatlarimizga suvg`arilgan va ulardan

oziqlangan ruxiy dunyomizdan, tarixiy o'tmishimizdan ayrilib, oqir-oqibatida o'zimiz intilgan umumiy insoniy rivojlanish yulidan chetga chiqib qolishimiz mumkin. [3]

Demokratik rivojlanish yulida bizning mamlakatimizga yukori ma'lumotli, xar taraflama rivojlangan kadrlar kerak. Respublikamizning talim sistemasining «Ta'lim to'grisida konun» va «Kadrlar tayorlashning milliy dasturi» asosidada didaktik bosh vazifamiz yoshlarni tarbiyalash bulib topiladi. [4]

Hozirgi zamonaviy bosqichda pedagogik dolzarb vazifalarga tan, texnika, ilg'or texnologiyalar yutuqlaridan foydalanish asosida shaxsni tarbiyalash, uqitish va rivojlantirish masadlari, mazmuni, metodlari, vositalari, va tashkiliy shakllarini ilmiy ta'minlash kiradi. Kadrlar tayorlash sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama rivojlangan shaxs-fuqaroning tashkil topishini kuzda tutadi. Ushbu ta'lim tizimida va kadrlar tayorlashda ta'lim xizmatining ist'emolchisi, buyurtmachisi sifatida va huddi shunday ishlab chiqaruvchi sifatida ishtiroq etadi.[6]

YuNESKO tomonidan tan olingan pedagogik texnologiya oqimi 30-yillarda AQShda paydo bo'ldi va 70-80 yillarda barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab oldi.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun mo'ljallangan majmuali texnik vositalarning yaratilishida namoyon qiladi.

Pedagogik amaliyotda yangi yul va vositalarini jadal tatbiq etilayotganligini kuzatish mumkin. Biroq ba'zi ta'lim shakl va faol usullar o'rniga bo'linmas ta'limiy texnologiyalar zarur. Lekin ta'limiy jarayonni texnologiyali loyihalashtirish va rejalashtirishni, faqat texnologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi bajara olishi mumkin.

*Texnologik bilimlar tizimi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat:*

➤ *tushunchaga oid qism* - texnologiyalashtirishning murakkabroq bo'lgan toifa va qoidlarini o'rganishga yul;

➤ *ta`lim texnologiyasining tarkibiy qismi va harakatlanuvchi tuzilma* - ta`lim jarayonini bashoratlash va loyihalashtirish asosi to`g`risida tushuncha;

➤ *ta`limiy texnologiyalarning kontseptual asoslari* - har qanday ta`lim texnologiyasi negiziga pedagogik va psixologik fanlar yutug`ida ifodalangan pedagogik g`oya asos bo`ladi;

➤ *maqsadni belgilash* - pedagogik vazifalar aniqlangan bo`lsa va o`quv faoliyatining yakuniy natijalari bir ma`noda ifodalangan bo`lsa, boshlanish shartlari ma`lum bo`lsa, ta`lim jarayonini loyihlashtirish mumkin;

➤ *ta`lim berish modeli* – maqbul yul (usul va shakl)lar va vositalar yig`indisi - mavjud sharoitlar va belgilangan vaqtda ob`ektning boshlang`ich holatini o`zgartirish bo`yicha ko`zlanayotgan natijalarga erishish kafolati;

➤ *boshqaruvning yul va vositalar yig`indisi* - bashoratlash, loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat va baholash, shuningdek tezkor o`zgartirish

➤ to`g`risida boshqaruv xulosasini qabul qilish maqsadida ta`lim jarayonini uzluksiz va muntazam kuzatish - monitoring.

*Har bir yul va vosita o`qituvchi-texnolog tomonidan, u intilayotgan, yakuniy natijaga erishishga ko`rinarli qo`shgan hissasi tomoni bilan baholanishi zarur. Qoidaning maqbulligini talqin qila turib, e`tiborni nafaqat unga, uni qo`llashni nazarda tutuvchi vaziyat yoki sharoitlarga qaratish zarur. Gap shundaki, qoidalar odatda formula emas, boshqaruv xususiyatga ega bo`ladi, madomiki ularni qo`llash mumkin bo`lgan, ta`lim jarayoni sharoitida ayrim noaniqliklar bor. Bundan tashqari, avvalda shu narsani o`quv vaziyatida qo`llab, muvaffaqiyatga erishgan o`qituvchi-amaliyotchi yoki hammaga ma`lum bo`lgan ta`lim berish texnologiyasining muallifida, shuni qoidasiz umumlashtirishdagi xatoliklar tarqalgan. Mohiyat shundaki, barcha turli-tumanlikdan mavjud sharoitda va o`quv rejasida berilgan vaqtda ko`zlanayotgan natijaga erishishni kafolatli ta`minlaydigan, so`ngra esa undan shu sharoit uchun mos keladigan, ta`lim berish texnologiyasining - yagona majmuini loyihalashtirish mumkin bo`ladigan, axborot, muloqot va boshqaruvning shunday yul va vositalarini baholashi, farqlashi va tanlashni uddalashi muhim. [7]*

O'zbekiston Respublikasi demokratik hududiy davlat va fuqarolik jamiyat qurish yulini tanlagan va amalga oshirib kelmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan qayta qurilishdan asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovanligi hisoblanadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bulishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi.[9]

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor berib kelinmoqda. Yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim muassalarining moddiy–texnika va axborot bazasini mustaxkamlash, yuqori sifatli o'quv adabiyotlar, darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlarini yaratish, elektron kutubxonalar tashkil etish bilan bog'likdir. Zamonaviy bilimlar sari keng yul ochish, ta'lim tizimini takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish hozirgi kunning talabiga aylandi. [11]

Innovatsion texnologiyaning asosiy tamoni xar bir shaxsta mavjud bulgan uning talabi, kizikishi, kobilyati va imkoniyatlari asosida shaxsta ijobiy fazilyat va xossalarni shakllantirish va rivojlantirish bulib xisoblanadi. Shu sababli talim mazmuni insoniylikka yunaltirilgan gumanitar goya va ulchamlarni uzida jalb kiladigan bulishi lozim. Innovatsion texnologiyalarga kura, uquvchining bilim olishidagi mustaqilligini oshirish, mustaqil faoliyatini tashkil etish yuli bilan til va nutqiy ta'lim samaradorligigaa erishish, rivojlantiruvchi ta'lim mohiyatini ruyobga chiqarish, uquvchilarning mustaqil uqib urganishini ta'minlash mumkin. [12]

Hozirgi zamon mutaxassislari, faoliyat doiralari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, informatika bo'yicha keng ko'lamdagi bilimlarga, zamonaviy hisoblash texnikasi, informatsion aloqa va kommunikatsiya tizimlari, orgtexnika vositalari va ulardan foydalanish borasida etarli malakalarga ega bo'lishi, hamda, yangi informatsion texnika va texnologiya asoslarini uning ertangi kuni, rivoji to'g'risidagi bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. [13]

O`qituvchi – pedagogning hususiy fanlar asoslarini uqitishda yunaltirilgan mashg`ulotlar jarayonini noan`anaviy shakllarda tashkil etish, ta`lim jarayonini mukammal andoza asosida loyhalashga erishish, mazkur loyhalardan oqilona foydalana olish kunikmalariga ega bulishi ta`lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chukur uzlashtirilishi, ularda amaliy kunikma va malakalarining hosil bulishining kafolati bula oladi[17].

Hozirgi vaqtda «innovatsion texnologiya ta`lim berishning texnik vositalari yoki komp`yuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmay, balki bu ta`limiy samaradorlikni oshiruvchi omillarni tahlil qilish yuli orqali, yul va materiallarni tuzish hamda qo`llash, shuningdek qo`llanilayotgan usullarni baholash orqali ta`lim jarayoni tamoyillarini aniqlash va eng maqbul yullarini ishlab chiqish maqsadidagi tadqiqotdir». [19]

**Íshning dolzarbligi:** Maktab ta`lim-tarbiya masalasi mamlakat va ja`miyat nazoratida bulishi asosiy qonunda belgilap quyilgan. Shu bilan birga bu keng jamyatshilik, butun xalqimizning ishtiroqida va qullab quvatlashini talab etadigan umumiy milliy masala bulip topiladi.

**-Íshning ob`ekti va predmeti:** Umumiy urta ta`lim beradigan maktab o`quvchilarida kimyo faniga bolg`an qiziqishini orttirish, mavzuni ta`lim vositalaridan foydalanib urgatish.

**-Íshning maqsadi:** Har hil innovatsion texnologiyalardan foydalanib umumiy ta`lim beruvchi urta maktablarning keyingi yillar davomidagi yoshlarning kimyo fanidan bilim darajalarin aniqlash, samarasin oshirish imkonlarini tadqiqot etish.

**Íshning vazifalari:** - kelajak avlodlarimizning kimyo fanidan ta`lim olish qobilyatini aniqlash bilan cheklanmastan, bu ishni samarasini orttirish uchun metodik masalalarni da urganish.

- ishqoriy metallar mavzusini innovatsion texnologiyalardan foydalanib o`qitish buyicha metodik kursatmalar ishlab chiqish.

## 1. Adabiyotlarga taxlil yashash

O`zbekiston Respublikasi demokratik hududiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurish yulini tanlagan va uni amalga oshirib kelmoqda. Respublikamizdagi amalga oshirilayotgan qayta qurishdan asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi hisoblanadi.

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon va jamiyatidagi obro-u`tibori avvalambor farzandlarimizning unib-usib, ulg`ayib, qanday inson bulib hayotga kirib borishiga bog`liqdir. Biz bunday utkir haqiqatni hech qachon unitmasligimiz kerak. [1]

«Kadrlar tayorlashning milliy dasturi» uzluksiz ta`lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan isloh qilishga qaratilgan.

«Milliy dasturni» amalga ochirishda mavjud ta`lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan uzgartirish zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlari va ijtimoy tajriybalarga, ta`lim jarayonini hamma bosqichlarida, uzluksiz ta`lim tizimi ta`lim muassasalarining hamma shakli va turlarida ilg`or –metodik ta`limlar tayangan holda amalga oshiriladi. Ta`lim-tarbiya jarayonini demokratiyalashtirish o`qituvchi o`quvchilarning fukoralik huquqlarin tenglashtirish, o`quvchilarga tanglash huququning berilishi, uz fikrini va kuz qarashini erkin bayon etish, bu yulda xatoga yul kuyishi mumkin ekanligi, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bolalar xukuklari Konventsiyasiga amal kilishni kursatadi. [4]

Yangi pedagogik munosabatlarning uziga xos tamoni, dasturiy ta`limdagidan fark qilib o`quvchilarning erkinligi va o`qish faoliyatini man etmastan, belgilangan maqsadga yunaltirish, o`qish faoliyatini boshkarmastan birgalikta ishlashni tashkil etish, ta`lim-tarbiya jaryonida majburlashtan vaz kechib, o`quvchilarni shu faoliyatiga ongli xolatda yunaltirish, qandayda bir ishni buyruk orqali amalga oshirishtan, balkim shu ishni natijali tashkil etish orqali o`quvchilarda qiziqishni uygotish, shaxsning talabi, kizikishi, imkoniyatlarini sheklamastan erkin tanglash huquqini berish xisoblanadi. [6]

Pedagogning o`quvchi shaxsiga bulgan insoniylashtirilgan munosabati bolalarni sevish, uz-aro birga ishlashning xosil bulishi, suhbatlashish

madaniyatining yukori darajada bulishi, o`qituvchilarning tug`ridan-tug`ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobiy marafatlashning ustunligi sababli talim jarayonida muljallagan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bulish, ularni bartaraf etishning eng natijali yullarini kullanishda kuzga tushadi. O`qitish texnologiyasi bu didaktik sistemaning asosiy protsessual qismi bulib topiladi. Talim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kullanish eng daslab pedagogik munosabatlarni insoniylikka yunaltirish va demokratiyalashtirishni talab etadi. Shunki pedagogik munosabatlarni insoniylikka yunaltirish va demokratiyalashtirishni amalga oshirmastan kullangan xar qanday pedagogik texnologiya kutilgan natijani bermaydi. [7]

Pedagogik munosabatlarni insoniylashtirish va demokratiyalashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga karama-karshi bulib, pedagogik jarayonda birga ishlash, g`amxorlik, o`quvchilar shaxsini hurmat etish va asrash orqali shaxsning ta`lim olishi, ijodkarlik etishi va uzin-uzi rivojlantirishga qulay ijtimoy va psixologik muxit yaratadi. Bu jarayonda o`quvchi ta`lim faoliyatining sub`ekti xisoblanadi va o`qituvchi bilan birgalikta birdan-bir ta`lim jarayonining ikki sub`ekti ta`lim-tarbiyaviy vazifalarin amalga oshiradi.[11]

Pedagogik texnologiya – o`qituvchining amaliy texnologiya ishiga engizishi mumkin bulgan, pedagaogik sistema rejasi atrofida bir-biri bilan zich boglanishta pedagogik ketma-ketlikta zanjir komponentlari: talim-tarbiyaning maksadi, mazmuni, didaktik jarayonlarning tashkil etish shakllari, o`qitishning texnik uskunulari, o`quvchi va o`qituvchining birgalikta ishlashi barkamol insonni shakllantirishda asosiy rolni bajaradi.[17]

Pedagogik munosabatlarni insoniylashtirish va demokratiyalashtirish asosidagi pedagogik texnalogiya uzida filosofiya, psixologiya va pedagogikaning insoniylik goyalarini jalb etadi. Shu pedagogik diqqat markazida uz imkoniyatlarini maksimal darajada amaliyatta kullaydigan, ijodiy va ijtimoy faollilik, xar xil turmush vazifalarni aniklab, talkilaydigan nishonani ongli tarizda erkin, tugri fikirloy oladigan shaxsni shakllantirish goyasi turadi.[19]

## 2. Material metodika

Demokratik islohatlar yuliga qadam quyan mustaqil O`zbekiston Respublikasiga o`qimishli, har tamonlama etuk, barkamol fuqarolar kerak. Aynan, «Shaxs» tushunchasi milliy ta`lim (modifikatsiyaning)shakl va shamoyiligida muhim ahamiyatga ega bo`lib,darsga zamonaviy yondashishni talab etadi.

Umumiy urta talim maktablarinda kimyoni o`qitish jarayonini jadallashtirish va talim-tarbiya masalalarin tadkikotlash maksadida bir qancha ilmiy materallar analizlandi. Asosan sungi yillari ishlab chikilgan umumiy urta maktab o`qish dasturlari, darsliklar bilan Davlat amaliyati davrida va kimyoni o`qitish metodikasi fanini uzlashtirishda urganildi. Shuningdek Nukus shaxri №3 urta maktabning 9-sinflarda davlat amaliyoti vaqtida metodistlar A.Erekeeva va L.Kabulovalarning rahbarligida eksperiment qilindi va yaxshi natijalarga erishildi. S.Masharipov, I. Tirkashev. Kimyo. Akademik litsey va kasb xunar kolldjlari uchun darslik, Toshkent «O`qtuvchi» 2002 yil, M.M.Abduxaeva, U.M.Mardonov. Kimyo. Akademik litsey va kasb xunar kolldjlari uchun darslik. Toshkent «O`zbekiston» 2002 yil, va I.R.Asqarov, N.X.Toxtabaev, K.G`.G`opurov. Kimyo. 9-sinf uchun darslik. «Sharq». Toshkent-2009yili chop etilgan darsliklari asosida ko`rib chikildi. Internet materiallaridan foydalanildi.

Maktab o`quv chilarining ta`lim-tarbiya olish darajasin etilishtirish imkoniyatlari mavjud, ayrim konuniyatlarni urganishda talab etuvchi va shunga asoslanib uzlarining shaxsiy ko`z-qarashlarini qisqacha bayon etishga yunaltiruvchi bazibir didaktik topshiriqlar ishlab chiqildi va ularga zarurli didaktik materiallar tanglab olindi. Interaktiv metodlardan aqliy hujim, refleksiya, klaster, toyfalash, insert, nima uchun, venna diagrammasi, krossvord-topishmoq, sehirli gullar, kriptogramma usullari qullanildi. Ekspert varaqlari ishlab chiqildi. Mavzu buyicha o`quv-uslubiy materiallar tayorlandi. Ta`limning o`quv-metodik ta`lim vositalaridan, yordamchi ta`lim vositalaridan va ta`limning texnik vositalaridan foydalanildi. Modulli ta`lim texnologiyalar asosida mavzu buyicha darsning ta`lim moduli va texnologik xaritalari ishlab chiqildi, vizual materiallar tayorlandi.

### **3. Asosiy qism**

#### **3.1. Ta`lim tizimida innovatsion texnologiyalar**

Jamiyatimizda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarida bo'layotgan o'zgarishlar kelajakda mamlakatimizning intellektual imkoniyatlarini belgilab beruvchi va uni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblangan ta`lim tizimiga ham bog`liq ekanligini hisobga olish kerak. Shu bilan birga intellektual salohiyatning o'sishi, uni sifat darajasida rivojlantirish nafaqat ta`lim samaradorligining oshishiga, shu sohadagi tizim takomillashuviga o'z ta`sirini o'tkazibgina qolmay, balki mazkur ijtimoiy tizimning barcha sohalarini o'sishiga ham sezilarli darajada ta`sir etadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ta`limdagi strategik yo'nalishlardan biri sifatida ta`lim muassasalarining innovatsion faoliyati asosiy omil etib belgilab berilayapti. Ta`lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib etish, amaliyotda ta`lim muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va, eng muhimi, aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat.

Bu holat bugungi kunda o'ta dolzarbligi bilan muhimdir, chunki ushbu jarayon (innovatsion jarayon) ta`lim muassasalarini yashash sharti (bevosita va ko'chma ma`noda ham), kelajak avlodlar va pedagoglar jamoasining aloqalarini ijtimoiy himoyalash sharti bo'lib ham xizmat qiladi. Hayot ta`lim muassasalari oldiga yangi, vazifalarni, ya`ni eskichasiga ishlab turib, aniq yangiliklarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni oldimizga qo'ymoqda.

Barcha yangiliklarga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashadigan, o'tmish boyliklarga, tajribalarga e'tiqod ruhida tarbiyalangan, stabillikni yoqtiradigan keksa avlodni, shuningdek hech qanday o'zgarishlarni xohlamaydigan pedagoglarni ham tushunish mumkin. Bunday holatda «innovatsion jarayonlar orqasidan quvish» bugungi hayotimizning ajralmas qismi ekanligini ham tushunish zarur. Xohlaymizmi yoki yo'qmi bizning ta`lim muassasalari devorining orqasida bozor va bozor munosabatlari jarayoni ketayapti. Bu jarayon to'g'ridan-to'g'ri bizga tegishlidir, chunki ta`lim muassasalari o'rtasidagi raqobat, ta`lim sifati, ijtimoiy buyurtmalar kabi yangi tushunchalar turmushimizga kirib kelayapti.

To'g'rirog'i, bu jarayon biz yashayotgan muhit, hayot tarzi ekanligini har doim his etib turishimiz kerak.

Bu jarayonga qarshi turish befoyda va xavflidir. Biz tanlash imkoniyatiga ega emasmiz va ushbu tezkor jarayon (quvish jarayoni) da ishtirok etishga majburmiz. Mazkur jarayonga eng muhimi aql bilan yondashish, o'z tashkilotimiz manfaati yulida ishtirok etishdan iborat. Ko'pchilik mutaxassislar fikricha, o'zgarishlarga moyillik, bugungi kunda rivojlanishning hal qiluvchi sharti, u yoki bu ta'lim muassasasining raqobat qobiliyatini ta'minlovchi asosiy omil deb hisoblanadi.

Bugungi kunda maktab va oliy ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojlanishida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda.

***Innovatsiya (in-«lik», novus-«yangi») yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi.***

«Innovatsion ta'lim» deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga;
- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o'quv-metodik ta'minotiga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;
- o'quv reja va o'quv dasturlariga;
- o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bog'liq.

Yangilik tarixiy aspektida nisbiylik ahamiyat kasb etadi. Yangilik aniq tarixiy xarakterga ega, ya'ni o'z vaqtdan oldin paydo bo'lishi mumkin, o'z vaqtida me'yor bo'lishi yoki eskirishi ham mumkin. Maktab yoki oliy tizimning

rivojlanish jarayonida, ehtimol ta`lim tizimi butunicha:

- absolyut yangiligi (o`xshashi, prototipning yo`qligi);
- nisbatan yangiligi;
- o`ziga xos, ixtirochiligi ko`rinishidagilar hisobga olinadi.

Yangilik xillari (tiplar) maktab va oliy tizimda turlicha asoslarga ko`ra guruhlanadi:

**Birinchi klassifikatsiya** (guruh) yangiliklarni kiritish, maktab va oliy tizimda sodir bo`ladigan pedagogik jarayonga aloqadorligi bilan asoslanadi. Ushbu jarayonni tushunishga tayanib, quyidagi ko`rinishdagi yangilik xillarini ajratish mumkin:

- ta`lim maqsadi va mazmuniga;
- pedagogik jarayon metodikasi, vazifalari, usullari, texnologiyalarga;
- ta`lim va tarbiyani tashkil etish shakllari va vositalari;
- rahbariyat, pedagog va o`quvchilar faoliyatiga.

**Ta`lim tizimiga ikkinchi klassifikatsiya** (guruh) yangilikni kiritish ko`lami belgisiga asoslanadi. Bu erda quyidagi o`zgarishlarni ajratish mumkin:

- bir-birlari bilan bog`liq bo`lmagan lokal va alohida (bir tomonlamalilik);
- kompleks, o`zaro bir-biri bilan bog`liq;
- butun maktab va oliy tizimni qamrab oluvchi, tizimli.

**Uchinchi klassifikatsiya** (guruh) innovatsion imkoniyatlarga qarab amalga oshiriladi. Bu holatda e`tiborga olinadi:

- ta`lim dasturlari, o`quv rejalar, tuzilmalarni takomillashtirish, ixtirochilik, ko`rinishlarni o`zgartirish bilan bog`liq ma`lum va qabul qilinganlarni modifikatsiyalash;

- kombinatorlikka (o`zgartirishlar) xos yangilik kiritish;
- radikal o`zgartirishlar.

Yangilik kiritishning **to`rtinchi klassifikatsiyasi (guruh)** oldingilariga nisbatan belgilariga asoslanib, guruhlanadi. Bunday yondashuvda yangilik o`rin almashuvchi, bekor qilinuvchi yoki ochib beruvchilarga qarab belgilanadi. Bu holatda maktab va oliy tizimda yangilanish manbai sifatida:

- mamlakat, hudud, shahar, tumanning ehtiyoji sifatidagi ijtimoiy buyurtmasi;
- ijtimoiy buyurtmani hudud va viloyat ahamiyatiga molik qonun va hujjatlarda aks etishi;
- inson to'g'risidagi kompleks fanga erishish, ilg'or pedagogik tajriba;
- xato va kamchiliklarni sinashda rahbar va pedagoglarning intuitsiyasi va ijodkorligi;
- tajrib-sinov ishlari;
- chet el tajribalari xizmat qiladi.

Ta'lim sohasi mamlakatimizda birinchilardan bo'lib faol innovatsion harakatni boshladi. Ma'lum bosqichda XX asr oxirlarida bunday harakatlar yulga qo'yilgan edi. Masalan, A.G.Rivin va V.K.D'yachenko tomonidan o'qitishni jamoaviy o'qitish, D.B.El'konin, V.V.Davidov, L.V.Zankovlar tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi innovatsion ta'lim to'g'risidagi qarashlar o'z vaqtida ma'lum ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga boshqa innovatsion ta'lim texnologiyalari: dialektik o'qitish usullari (A.I.Goncharuk, V.L.Zarina), o'qitishning individual yo'nalishli usuli (A.A.Yarulov), "Ekologiya va dialektika" (L.V.Tarasov), evristik o'qitish (A.V.Xutorskoy) dialog madaniyati (V.S.Bibler, S.Yu.Kurganov), loyihali o'z-o'zini refleksiya (G.P.Shedrovitskaya) va boshqalarni keltirish mumkin.

An'anaviy pedagogik ta'lim mazmuni va tashkil etishi jihatidan aniq o'quv fani bo'yicha mutaxassis o'qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikdagi an'anaviy tizimda, faoliyatli yondashuv asosida o'quv-tarbiyaviy jarayon yotadi va bu jarayonda ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar «sub`ekt-ob`ekt» tarzida yulga qo'yilgan. Bu erda sub`ekt-o'qituvchi ma'lum chegaralangan sharoitda bo'lib, uning faoliyatini o'quv reja va o'quv dasturi boshqaradi hamda munosabatlar qat'iy belgilab qo'yilgan. Ob`ekt-talaba ma'lum darajadagi bilim hajmi bilan chegaralangan.

An'anaviy ta'lim mazmun jihatidan o'zaro bog'liq avtonom faoliyat bilan belgilangan: o'qituvchini o'qitish faoliyati va talabani o'quv-bilish faoliyati;

o'qiyotgan talaba o'qituvchi rejasining ijrochisi va boshqaruv ob'ekti bo'lib faoliyat ko'rsatadi.

An'anaviylikdagi o'quv jarayonida o'zaro faoliyat taqlid qilish, imitatsiya, andoza bo'yicha faoliyat ko'rsatish, ijtimoiy va shaxslararo ta'sirning bir xildaligi, tashqi nazorat va natijani baholash, bularning barchasi bilish motivlarini qisqartirish, bilish motivlarini kengayishiga imkon bermaydi.

1990-2000 yillar davomida nazariya va amaliyotda pedagogik ta'limga yangicha yondashuvlar ishlab chiqildi. Yangi o'quv rejalariga ko'ra oliy ta'lim o'quv fanlarini kurslar bo'yicha mustaqil o'tish imkoniyatiga ega bo'ldi. Innovatsion harakatlarni bir nechta jumladan, tashkiliy, mazmunli, uslubiy ko'rsatkichlari yuzaga keldi va amaliyotga joriy qilindi. Ushbu holatlar ko'plab pedagogika va psixologiya kefedralari yig'ilishlarida asosiy masalasi sifatida muhokamaga qo'yildi hamda davlat o'quv rejasi, dasturlari asosida har bir oliy o'quv yurti o'zlarining ishchi o'quv reja va ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqishga kirishdi. Bu esa joylarda har bir fan o'qitilishining innovatsion texnologiyalarini joriy etish va qo'llash uchun imkoniyatlarni berdi. Mazkur o'zgarishlar respublikadagi barcha oliy o'quv yurtlari o'quv rejalariga pedagogik-psixologik fanlar hajmini 20-25% gacha ortishiga asos bo'ldi.

### 3.2. O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi bo'yicha o'qitish rejasining tuzilishi va mazmunining tarkibi

Har bir ta'limiy texnologiya ta'lim texnologiyasi modeli, ta'limning texnologiya xaritasi, texnologiya xaritasiga ilovalardan iborat bo'ladi.

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning *ta'lim modeli* jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- *dastlabki ma'lumotlar*: o'quv mavzusi, vaqti, talabalar soni;
- *shakl* (ma'ruza, seminar va boshq.) va *ko'rinishi* (masalan, muammoli ma'ruza va boshq.), o'quv mashg'uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- tanlangan ta'lim modeli: *usullar, shakllar va o'qitish vositalari*;
- *ta'lim berish sharoiti*: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
- *monitoring va baholashga* asoslangan qaytar aloqaning yul va vositalari: nazorat turi (yozma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshq.).

*O'quv mashg'ulotining texnologiya xaritasi* uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati; (3) ta'lim oluvchi faoliyati.

*Ilova*. O'quv jarayonining tashkiliy - didaktik vazifasini bajaradi: o'quv/mustaqil ish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lim beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu erda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

## O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi modeli

**Mavzu** (raqami) .....(nomi).....

<i>Vaqt: ...soat</i>	<i>Talabalar soni:...</i>
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Ma'ruza (axborotli/birlashgan dars va boshq.), seminar (bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish bo'yicha), amaliy mashg'ulot
<i>Ma'ruza rejasi / o'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>	1. ... 2. ... 3...
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Shakllantirish / bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> ...bilan tanishtirish; ...tasnifini berish; ...tushuntirish; ... ochib berish va boshq.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> ...ko'rsatadilar; ...tasniflaydilar; ...aytib beradilar; ...tartibli ravishda ochib beradilar
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, insert, aqliy hujum, nima uchun, venna diagrammasi va boshq.
<i>Ta'lim shakli</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq. Yozma so'rov: referat, test va boshq.

**Ta'lim modeli** – berilgan vaqt va talab etiladigan shart buycha maqsadga va kerak bo'lgan ta'lim natijasiga erishish uchun zarur bo'lgan optimal metodlar bo'lib topiladi.

**O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi.** Mavzuiy rejadan farqli o'laroq texnologik xaritada (1) o'quv mashg'ulotining bosqichlari va vaqti; (2) ta'lim beruvchi faoliyati bilan birga, ta'lim oluvchining ham faoliyati; (3) ta'lim berishning usul, shakl va vositalari; (4) ta'lim maqsadlarining o'quv yutuqlari monitoringi va baholashlari ko'rsatiladi.

**Texnologik xaritaning tuzilishi va mazmunli ko'rsatkichlari.**

**1 - bosqich (5-10 daqiqagacha). O'quv mashg'ulotiga kirish.**

*Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar harakati:*

- Ta`lim beruvchi mavzuning nomi, (ma`ruza) rejasi bilan, o`quv mashg`ulotining xususiyati bilan (muammoli ma`ruza, o`rgatuvchili o`yin va boshq.), mavzu bo`yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxatini, o`quv mashg`ulotida o`quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

- Ta`lim oluvchilar tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar, yozib oladilar.

## **2 - bosqich (55-65 daqiqagacha). Asosiy / ma`lumot beruvchilik.**

*Ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchilar harakati:*

- Ta`lim beruvchi o`quv mashg`ulotining rejasig` tuzilishiga muvofiq tuzib chiqqan ta`lim modelini amalga oshiradi, ko`zlanayotgan o`quv natijalariga erishish bo`yicha ta`lim oluvchilar o`quv faoliyatini boshqaradi.

- Ta`lim oluvchilar ko`zlanayotgan o`quv natijalariga erishish bo`yicha rejalashtirilgan o`quv harakatini bajaradilar.

## **3 - bosqich (10-15 daqiqagacha). Yakuniy - natijaviy.**

*Ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchilar harakati:*

- Ta`lim beruvchi mavzu bo`yicha yakun yasaydi, ta`lim oluvchilar e`tiborini asosiylarga qaratadi, bajarilgan ishlarni kelgusi kasbiy ish faoliyatidagi ahamiyatini ma`lum qiladi, guruhlar, alohida talabalar ishini baholaydi yoki o`zaro baholashning yakunini chiqaradi; o`quv mashg`uloti maqsadiga erishish darajasini baholaydi; mustaqil ish uchun topshiriq beradi.

- Ta`lim oluvchilar o`zaro baholashni o`tkazadilar, savol beradilar, topshiriqni yozadilar.

## O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi. 1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar.  Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2-bosqich. Asosiy (daq.)	2.1. Tezkor-so'rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma`ruza/ seminar/ amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi	Javob beradilar Yozadilar. Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.
3-bosqich. Yakuniy (daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini etkazadi .	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

**Texnologik xaritada** ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat (o'quv jarayon)i bosqichlarining ketma-ketligi va mazmuni hamda ularda qo'llaniladigan vositalar tavsiflanadi. Texnologik xarita talabalarning mustaqil ishlashlarini nazorat qilishga yordam beradi.

### 3.3. Ishqoriy metallar mavzusini o`qitish texnologiyasining modeli va ta`lim texnologiyasi

#### **Mavzu: ISHQORIY METALLAR**

**Darsning ilmiy maqsadi:** O`quvshilarda ishqoriy metallar, ularning tabiyatda uchrashuvi, tabiiy birikmalari, fizik va kimyoviy xossalari, olinish usullari, ahamiyati va qo`llanishi haqidagi tushunchalarni shakllantirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o`quvshilarga atrof-muhitga va tabiyatga ongli munosobatta bulishni urgatish, ekologik, ekonomik va huquqiy-ta`rbiya berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** o`quvshilarda darslik va qushimcha adabiyotlar ustida erkin islash ko`nikmalarin, erkin fikrlay bilish qobiliyatini rivojlantirish.

#### **Darsta ta`lim texnologiyasi**

<b>Vaqt:</b> 1 soat	<b>Talabalar soni:</b> 25
<b>O`quv jarayonining shakli va turi</b>	<b>Ma`ruza</b>
<b>Ma`ruza rejasi</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ishqoriy metallarga sifatlama.</li> <li>2. Tabiyatta uchrashuvi.</li> <li>3. Fizikaviy xossalari.</li> <li>4. Kimyoviy xossalari.</li> <li>5. Qo`llanishi.</li> </ol>
<b>O`quv jarayonining maqsadi:</b>	Ishqoriy metallar haqidagi tushunchalarni shakllantirish
<b>Pedagogik vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ishqoriy metallarning ochilish tariyxini aytadi.</li> <li>• Ishqoriy metallarga sifatlama beradi.</li> <li>• Natriy, kaliy, litiy, tseziy, frantsiy guruxchasi</li> </ul>	<b>O`quv faoliyati natijalari:</b> <b>O`quvshi bajarishi lozim:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ishqoriy metallarning ochilish tariyxini biladi</li> <li>• Natriy, kaliy, litiy, tseziy, frantsiy elementlarining D.I. Mendeleev elementlar davriy sistemasdagi tartib raqami nimani</li> </ul>

<p>elementlarining elektron konfiguratsiyasini tushintiradi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ishqoriy metallarning tabiyatta uchrashuvi haqida aytadi.</li> <li>• Natriy, kaliy, litiy, tseziy, frantsiy elementlarining fizikaviy xossalariga tuqtaydi.</li> <li>• Natriy, kaliy, litiy, tseziy, frantsiyning kimyoviy xossalarin tushintiradi.</li> <li>• Natriy, kaliy, litiy, tseziy, frantsiy birikmalariga tuqtaydi.</li> </ul> <p>Natriy, kaliy, litiy, tseziy, frantsiy elementlarining ahamiyati va uning amaliyotta qo'llanishin aytadi.</p>	<p>bildiradigani, atom massasi va molekulyar massasi haqidagi tushunchalarga sifatlama berib biladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Natriy, kaliy, litiy, tseziy, frantsiy elementlarining elektron konfiguratsiyasini tuliq yozib biladi.</li> <li>• Natriy, kaliy, litiy, tseziy, frantsiy elementlarining fizikaviy xossalariga haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi.</li> <li>• Natriy, kaliy, litiy, tseziy, frantsiy elementlariga xos bulgan barcha kimyoviy reaksiyalarni yozib biladi.</li> <li>• Natriy, kaliy, litiy, tseziy, frantsiyning tabiyatta qanday birikmalar holatida uchrashuvi haqida tuliq ma'lumotga ega bo'ladi.</li> <li>• Ishqoriy metallar haqida barcha ma'lumotga ega bo'ladi.</li> </ul>
<p><i>Ta`lim usullari</i></p>	<p>Ma`ruza, insert, aqliy hujum, nima uchun, venna diagrammasi va boshq.</p>
<p><i>Ta`lim shakli</i></p>	<p>Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash</p>
<p><i>Ta`lim vositalari</i></p>	<p>Ma`ruza matni, texnika vositalari</p>
<p><i>Ta`lim berish sharoiti</i></p>	<p>Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar</p>
<p><i>Monitoring va baholash</i></p>	<p>Og`zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq. Yozma so'rov: masalalar, test va boshq.</p>

## Ishqoriy metallar mavzusi buyicha darsning texnologik xaritasi

Ish bosqich-lari va vaqti	Faoliyat	
	ta`lim beruvchi	ta`lim oluvchilar
1-bosqich. O`quv mashg`ulotiga kirish (5 daq.)	<p>1.1. O`quvshilarni borlaydi, darsni tashkillashtiradi.</p> <p>1.2. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg`ulot rejasi bilan tanishtiradi.</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.</p>
2-bosqich. Axborot bosqichi (35daq.)	<p>2.1. Tezkor-so`rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi:</p> <p>1. Ishqoriy metallarni tashkil etuvchi elementlarni aytib bering?</p> <p>2. Elementlarning elektron konfiguratsiyasi deganimiz nima?</p> <p>3. Ishqoriy metallarning tabiyatta uchrashadigan qanday birikma-larin bilasiz?</p> <p>2.2. Mavzuni o`zlashtirish buyicha metodik ko`rsatmalar beradi, tarqatma materiallar tarqatadi, vizual materiallardan foydalanadi, interaktiv usullardan foydalanadi (aqliy hujum).</p> <p>2.3. Oquv materiallarin tarqatadi.</p> <p>2.4. Insert usulin qo`llanadi.</p> <p>2.5. Klaster usulin foydalanadi.</p> <p>2.6. Venna diagrammasi usulin foydalanadi.</p> <p>2.7. Nima uchun usulin qo`llanadi.</p> <p>2.8. Toifalash usulin qo`llanadi</p>	<p>2.1. Individual ravishta ishlaydi, taqdimot qiladilar va javob beradilar</p> <p>2.2. Mavzuni o`zlash-tirish buyicha metodik ko`rsatmalarni urganadi</p> <p>2.3. Tarqatma material-larni urganadi.</p> <p>2.4. Insert usuli buyicha tarqatma materiallardan foydalangan holda insert jadvalin to`ltiradi.</p> <p>2.5. Klaster usuli buyi-cha topshiriqni bajaradi.</p> <p>2.6. Venna diagrammasi buyicha topshiriqni bajaradi.</p> <p>2.7. Ne uchun jadvalin to`ltiradi</p> <p>2.8. Toifalash jadvalin to`ltiradi.</p>

<p>3-bosqich. Yakuniy bosqich (5daq.)</p>	<p>3.1. Mavzuni o'zlashtirish darajasin bilish uchun savollar beradi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ishqoriy metallarga qaysi elementlar kiradi?</li> <li>2. Qaysi elementlarning izotoplari mavjud?</li> <li>3. Ishqoriy metallar o'z birikmalarida necha valentlilikni ko'rsatadi?</li> <li>4. Ishqoriy metallar ichida qaysilari oksid va qaysilari peroksid hosil etadi?</li> <li>5. Ishqoriy metallar amaliyotta qay erlarda qo'llaniladi?</li> </ol> <p>3.2.Darsning maqsadga etish darajasin baholaydi.</p> <p>3.3. Vazifa beradi.</p>	<p>3.1. Savollarga javoblar beradi.</p> <p>3.2. Analiz qiladi.</p>
---	---	--

### 3.4. Ishqoriy metallar mavzusi buyicha o`quv-uslubiy materiallar

*Davriy sistemadagi ishqoriy metallarning urni va ularning atomlarining tuzilishi.* Ishqoriy metallar litiy, natriy, kaliy, rubidiy, tseziy va frantsiy D.İ.Mendeleevning davriy sistemasining I-guruhining asosiy qismida joylashgan. Ulardan ko'proq amaliy ahamiyatga egasi natriy va kaliy bulib xisoblanadi.

Ishqoriy metallar urtasida atomning radiusi eng kishisi litiy bo'lib xisoblanadi. Uning tashqi  $s$  – elektroni ikkinshi energetik qavatta joylashgan. Atomning eng radiusi kattasi frantsiy bulib xisoblanadi. Uning  $s$ -elektroni ettinshi qavatta joylashgan. Ishqoriy metallarning atomlari kimyoviy reaksiyalar vaqtida tashqi elektronlarini beradi va ularning birikmalarida  $+1$  oksidlanish darajasin ko'rsatadi.

Litiydan frantsiygacha atomlarning radiuslarining kattalashuvi bilan atomlarning ionlanish energiyasi kamayadi va qoydaga muvofiq ularning kimyoviy aktivligi ortadi. Tashqi qavat elektronlari valent elektronlari yadrodan borgan sari uzoqlashadi, yaniy valent elektronlarining yadroga tortilish kushi kamayib boradi. Bu elementlarnig atom radiuslari angstrom bilan ifodalansa, u kuyidagicha bo'ladi:

- Li – 1,55 Å<sup>0</sup>
- Na – 1,89 Å<sup>0</sup>
- K – 2,36 Å<sup>0</sup>
- Rb – 2,48 Å<sup>0</sup>
- Cs – 2,68 Å<sup>0</sup>
- Fr – 2,80 Å<sup>0</sup>

**Ochilishi.** *Litiy.* Shved kimyogari İogani Avgust Arfvedson (1792-1841) alyuminiy silikatini tekshirish natijasida 1817-yili yangi elementni kashf etdi. Unga shved kimyogari İ.Ya.Bertselius litiy deb nom berdi. Litiy lotincha «tosh» degan ma`noni bildiradi. 1818-yili shved kimyogari Gemfri Devi elektroliz yuli bilan toza litiyni oldi.

*Natriy.* Bu metall 1807-yili angliya olimi Gemfri Devi tomanidan uyuvchang natriyni elektroliz qilish yuli bilan olindi. Uning nomi arab al`ximiklari davrida nomoyan bo'lgan sodaning grekcha nomi «nitrum» nan olingan.

**Kaliy.** Bu metall 1807-yili angliya olimi Gemfri Devi tomanidan uyuvchang kaliy (shu davrda ishqor nomi bilan namoyan bo'lgan) ni elektroliz qilish yuli bilan olindi. Uning nomi arabsha nomi «kalium» so'zidan oligan bolib, ma'nosi alkaliy bilan bog'lik.

**Rubidiy.** Nemets olimlari Robert Vil'gelm Bunzen (1811-1899) va Gustov Kirxgof (1824-1887) yaratgan spektral analiz usulu bilan 1861-yili rubidiyni kashf etdi. Lotincha rubidiy «qizil» spektrdagi rubidiyga taluqli rang.

**Tseziy.** 1860- yili R.V. Bunzen va G.Kirxgof kashf etdi. 1882- yili shved olimi Setterberg toza holatida ajratib oldi. «Tsezium» lotincha havo rang spektrdagi tseziyga taluqli rang.

**Frantsiy.** 1939-yili frantsuz olimi M.Pere aktiniyning radioaktiv tarqalishi natijasida hosil bo'lgan maxsulotlar orasidan topti va o'z vatani nomi bilan nomladi.






**Fizikaviy xossalari.** Natriy kumushsimon oq, yumshoq, pichoq bilan oson kesiladigan metall. Uning nisbiy og'irligi  $20^{\circ}\text{C}$  da 0,97 ga teng;  $t_c = 97,7^{\circ}\text{C}$ ,  $t_{\text{qayn}} = 883^{\circ}\text{C}$  kubik shaklida kristallanadi. Natriyning bug'i olangani sariq rangga o'zgartadi. Havoda juda tez oksidlanadi, laboratoriyada yonib ketmasligi uchun uni kerosin yoki benzin ostinda saqlaydi, qotishmalari shu suyuqliqlarda tunuka idishlarda sotiladi.

**Ízotoplara:** Natriyning barqaror izotopi bitta sun'iy to'rtta izotopi mavjud:  $\text{Na}^{21}$ ,  $\text{Na}^{22}$ ,  $\text{Na}^{24}$ ,  $\text{Na}^{25}$ . Kaliyning sun'iy 5, tabiiy 3 izotopi mavjud:  $\text{K}^{39}$ ,  $\text{K}^{40}$ ,  $\text{K}^{41}$ .

**Ishqoriy metallarning elektron konfiguratsiyasi.** Ishqoriy metallar s - elementlar semeystvosiga kirib, ularning elektron konfiguratsiyalari quyidagicha:


Element nomi	Kimyoviy belgisi	Nisbiy atom massasi	Elektronlarning energetik pog'onachalarda jorylashuvi	Tashqi qavat. elektron konfiguratsiyasi
Litiy	Li	6,9	$_{+3}\text{Li } 2e^-, 1e^-$	$2s^1$
Natriy	Na	22,9	$_{+11}\text{Na } 2e^-, 8e^-, 1e^-$	$3s^1$
Kaliy	K	39,0	$_{+19}\text{K } 2e^-, 8e^-, 1e^-$	$4s^1$
Rubidiy	Rb	85,4	$_{+37}\text{Rb } 2e^-, 8e^-, 18e^-, 8e^-, 1e^-$	$5s^1$
Tseziy	Cs	132,9	$_{+55}\text{Cs } 2e^-, 8e^-, 18e^-, 18e^-, 8e^-, 1e^-$	$6s^1$
